

**“USMON AZIM SHERIYATIDA TABIAT TASVIRI MAVZUSIDA”****Qazaqova Barno Axmedjanovna***Urganch Innavatsion Universitetining Filologiya Ozbek tili yunalishi 2- bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Maqolada Usmon Azimning sheriyatida tabiat tasviriga etibor qaratilgan. Shoir tabiatni faqat tashqi guzallik sifatida koribgina qolmay, u orqali inson ruhiyatini ichki dunyosini aks ettirishga harakat qiladi. Shrlarida tabiatdagi hodisalar, fasllarning almashishi, osimliklar va hayvonlar orqali insonning hissiyotlari va orzulari ifodalanadi. Tabiatdagi muhim elementlar sifatida inson va tabiat ortasidagi chuqur bogliqlikni tasvirlaydi. Usmon Azim sheriyatida nafaqat butun bir zamin, balki insoniyatning ichki dunyosini ochib berishga, qalb tugyonlari-yu his hayajonlarini aghlashga yordam beruvchi vosita sifatida namoyon buladi.*

Kalit So'zlar: *Tabiat va inson, ananaviy tasvir, vatanga muhabbat, duyoqarash va falsafa, tabiat va adabiyot, ijtimoiy muammolar, sheriyat va ruhiy holat, metafora va simbolizm. Bu kalit suzlar Usmon Azimning tabiatni tasvirlashdagi maxsus uslubini, uning adabiy maqsadlarini insoniyat va tabiat orasidagi murakkab munosabatlarni ifodalashdagi yondashuvini yoritishga yordam beradi.*

Kirish: USmon Azim –ozbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri bolib, uning sheriyatida tabiatning orni alohida. U tabiatni nafaqat manzaralar va obrazlar sifatida, balki inson ruhiyatining, falsafasining aks etgan bir vositasisifatida tasvirlangan. Usmon Azimning sheriyatida tabiat bilan bogliq ko'plab obrazlar va ramzlar orqali insonning ichki dunyosi, hayot va xayol haqidagi fikrlari ifodalangan. Shoir ijodida inson va tabiat mavzusi keng urin egallaydi. Uning sherlari tabiiy guzallik va inson ruhiyatini ozaro uygunlikda tasvirlashga qaratilgan. Usmon Azim tabiatni inson ichki duyosi bilan boglaydi uning har bir holatini, kechinmalarini tabiat orqali ifodalaydi. Insonning tabiat bilan munosabati, uning hayotiy tashvishlari, orzulari va kayfiyatlari shoir sherlarida rang-barang tasvirlanadi.

1. Tabiat va inson ruhiyati. Usmon Azimning sherlarida tabiat kopincha inson ruhiy holati bilan boglanadi. Masalan, shafaqning rangi, tongning otishi, quyoshning botishi orqali poetic obrazlar paydo buladi. Bu tabiatning ozgarishi inson qalbiga tasiri, uning ichki dunyosidagi kechayotgan jarayonlarga aloqador buladi. Usmon Azim tabiatni harakatga keltiruvchi kuch sifatida tasvirlaydi, u tabiatning barcha hodisalari insonlarning kayfiyati, hissiyotlari bilan chambarchas bogliq ekanligini korsatadi.

2. Tabiat va hayot falsafasi. Usmon Azimning tabiatni tasvirlashidagi yana bir muhim jihat-hayot falsafasiga oid masalalarni kotarishidir. U tabiatni, borliqni anglashni va insonga hayotning haqiqiy mazmunini tushunishning vositasi sifatida kuradi. Tabiatdagi ozgarishlar, mavsumlar almashinuvi, hayotning doimiy ravishda yangilanib borishi va otgan davrlarni eslash-bularning barchasi shoir sherlarida hayotning ozgarmas qonuniyatlari sifatida ifodalangan.



3. Tabiat va insonning oz-ozini anglash jarayoni. Usmon Azim sherlarida tabiat kopincha insonning ozligini anglash jarayonida yordamchi element sifatida namoyon buladi. Tabiatning har bir sifatiga etibor bilan qaraganda, inson ozining ichki dunyosini, ozining ruhiy holatini yaxshiroq tushuna boshlaydi. Tabiat orqali inson oz orzu va maqsadlari, armonlari, afsus va nadomatlarini tushunishga harakat qiladi.

4. Tabiat va poetik obrazlar. Usmon Azimning sherlarida tabiatning guzalligi va uning ozgacha tasvirlari muhim rol oynaydi. Masalan, qirgoqdagi oqshom, manzarali ormonlar, dala- dashtlar, daryolar va tolqinlar, rang-barang gullar, kutilmagan ozgarishlar- bularning barchasi poetik obrazlar sifatida qullanadi. Tabiatning nafaqat tashqi guzalligi, balki uning ichki simfoniya sifatida tasvirlash orqali shoir ozining sheriyl asarlarini yanada sayqallashtiradi. Tabiatdagi har bir detallari orqali badiiy tasvir va inson ruhiyatining boyligini aks ettiradi.

5. Tabiat va mushtaraklik. Shoirning tabiat tasviridagi yana bir ahamiyatli jihati shundaki, u nafaqat individuallik sifatida, balki insonlarning birligini, hamjihatligini anglatadigan unsur sifatida ishlatadi. Tabiatdagi tasvirlar kopincha shoir sherlarida ozaro boglanish, mushtaraklikni anglatadi. Bu tashbehlar orqali shoir insonlar ortasidagi ozaro hurmat va birdamlilikka chorlaydi.

6. Usmon Azim sheriylatida vatanparvarlik ruhiyati:

Shoir ozining sherlarida vatanninafaqat geografik hudud sifatida, balki milliy manaviyat, xalqning ruhiyati va tarixiy xotirasi sifatida tasvirilaydi. Uning sherlarida vatan obrazlari kopincha tabiat va inson bilan chambarchas bogliq holda yuzaga keladi. Shoirning ijodida asosan vatanni sevish, uning tarixini, madaniyatini va xalqning mehnatkashligini asosiy mavzu qilib oladi. Shoirning vatanparvarlik goyalari uning sherlarida har bir kishining vatanga bulgan masuliyatini ahglash, oz xalqning manfaatlarini ustuvor quyishni takidlaydi. U yoshlarni oz yurtinigi ravnaqi uchun ishlashga, uni himoya qilishga undaydi. Shoirning badiiy tasvirlarida vatan va uning guzal tabiatini uluglash, yurtni sevishni yosh avlodga yetkazish kabi goyalar aniq va yorqin tarzda aks etgan

Usmon Azim sherlari bugungi kunda yoshlarni oz milliy qadriyatlariga hurmat bilan qarashga orgatishda ahamiyatli orin tutadi.

7. Usmon Azim sheriylatidagi jihatlar pedagogik yondashuvlar nuqtai nazaridan ham orgatilishi mumkin. Chunki tabiatni tasvirlash orqali oquvchilarda nafaqat estetik tasavvurni rivojlantirish, balki ularning tabiiy olamga bulgan munosabatini shakllantirishga ham yordam beradi. Usmon Azimning sheriyl tasvirlaridagi tabiatni organishning bir nechta pedagogik yondashuvlari mavjud:

1. Estetik yondashuv:

Tabiat tasvirlari oquvchilarga guzallikni ahglash va qadrlashni orgatadi. Bundan tashqari tabiatning betakror guzalliklarini, ozgaruvchan manzaralarini sezish, ularning manosini tushunishimkoniyatuga ega buladi. Pedagogik yondashuvda estetik talim olsa buladi.

2. Ekologik yondashuv:



Bu pedagogikyondashuvda tabiat va inson ortasidagi ozaro aloqani tushunish va ekologik ohgni rivojlantirishga urgu beriladi. Oquvchilarga tabiatni asrab- avaylash, gozalligini asrash zarurligi haqida fikr yuritishga yordam beradi.

3. Tarbiyaviy yondashuv:

Usmon Azimning tabiat tasvirlaridagi har bir element, muayyan bir man ova tarbiyaviy xususiyatga ega. Tabiatni tasvirlash orqali oquvchilarda qaniyat, xotirjamlik, mexnatsevarlik, sabr-toqat kabi fazilatlarni shakllantirish mumkin.

4. Psixologik yondashuv:

Tabiat tasvirlari orqali oquvchilar shoirning ruhiy holatini, uning tabiatga bulgan munosabatini tushunishga harakat qilishadi. Tabiatdagi oxgarishlar, vaqtning otishi shoirning ichki dunyosidagi ozgarishlarni aks ettirishi mumkin.

Xulosa: Usmon Azimning sheriyatida tabiat ozining estetik guzalligi bilan birga, insonning ichki dunyosi va hayot falsafasini tushunishga undaydigan chuqur mano kasb etadi. Tabiat shoir uchun nafaqat tashqi muhitning tasvirini beruvchi vosita, balki insonning ruhiy va falsafiy holatini aks ettirishga yordam beruvchi asosiy elementdir. Shoir oz sheriyatida tabiatni doim yangi nuqtai nazardan korsatib, uning tasviri va obrazlarini insoniyatning umumiy hayotiy tajribasiga boglab taqdim etadi. U tabiat tasvirlari orqali sheriyat unson va olamning ozaro aloqasini, ularning bir-birini tushunishi va hayotda oz ornini topishini korsatadi. Bundan tashqari tabiat manzaralari faqat badiiy korinishda emas, balki tabiiy fanlar nuqtai nazardan ham tahlil qilinishi mumkin. Pedagogik yondashuvda esa bu tabiatni ilmiy jihatdan organish va sherlar orqali ilmiy bilimlarni oquvchilarga yetkezish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xurshid Davron kutubxonasi <https://>
2. Usmon Azimning "Saylanma" sheriy kitobi 1995 yilda chop etilgan.
3. Usmon Azimning "Kuz" sheriy kitobi 2001 yilda chop etilgan.
4. Usmon Azimning "Insonni tushunish" ilk sheriy kitobi 1979 yilda chop etilgan.